



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSU DALI KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADZHANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 342.5(045)(575.1)

DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI RAHBARLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Nasretdinova Oltinoy Po'latovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
e-mail: oltinojnasretdinova5@gmail.com
ORCID: 0000-0002-2312-4132

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat hokimiyati organlari va ularning rahbarlari faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki, tashqi omillar tahlil qilingan. Bundan tashqari davlat organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ham ahamiyatli ekanligi atroflicha o'rganilgan. Ushbu omillar yanada kengayishi bugungi davrning qanchalik keng ijtimoiy qamrovga ega ekanligini ko'rsatadi. Maqolada mavzuni tahlil qilish orqali davlat hokimiyati organlari rahbarlarining faoliyatini samarali amalga oshirishga olib keluvchi omillar ham izohlab o'tilgan. "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi" (keyingi o'rinlarda Konsepsiya) doirasida qayd etilganidek, davlat hokimiyat organlari faoliyatini baholash mexanizmlari faqat mavjud holatlarni qayd etish va statistik ma'lumotlarni joriy to'plashdan iborat bo'lib, bu ko'pchilik hollarda joylardagi ishlarning haqqoniy holatini aks ettirmaydi. Mazkur Konsepsiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri – maqsadli indikatorlarga erishishga va strategik rivojlanish dasturlarini amalga oshirish samaradorligiga asoslangan barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat, shu jumladan, davlat hokimiyati organlari faoliyatini baholashning prinsipial yangi tizimini joriy etishdir. Ayni paytda, bunday tizimni joriy qilish olimlar oldiga davlat hokimiyati organlari faoliyatini tadqiq etish borasidagi yangi vazifalarni qo'yadi.

Kalit so'zlar: davlat, hokimiyat, samaradorlik, omil, rahbar, faoliyat, boshqaruv

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ

Насретдинова Олтиной Пулатовна,
магистрант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются внутренние и внешние факторы, влияющие на деятельность органов государственной власти и их руководителей. Кроме того, подробно изучено значение социально-экономических факторов, влияющих на эффективность деятельности руководителей государственных органов. Дальнейшее расширение этих факторов показывает, насколько широк сегодня масштаб общества. В статье также проводится анализ темы и объясняются факторы, обуславливающие эффективное осуществление деятельности руководителей органов государственной власти. Как отмечается в Концепции административной реформы в Республике Узбекистан, механизмы оценки деятельности органов государственной власти состоят лишь в фиксации текущей ситуации и текущего сбора статистических данных, в большинстве случаев это не отражает реального положения дел на местах. Одним из приоритетов Концепции является внедрение принципиально новой системы оценки эффективности всех уровней исполнительной власти, в том числе органов государственной власти, на основе достижения целевых показателей и эффективности реализации программ стратегического развития. В то же время внедрение

такой системы ставит перед учеными новые задачи по изучению деятельности органов государственной власти.

Ключевые слова: государство, авторитет, эффективность, фактор, лидер, деятельность, управление.

FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF THE LEADERS OF GOVERNMENT AUTHORITIES

Nasretdinova Oltinoy Pulatovna,

Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. *This article analyzes the internal and external factors that affect the activities of public authorities and their leaders. In addition, the importance of socio-economic factors influencing the effectiveness of the heads of government agencies has been studied in detail. The further expansion of these factors shows how broad the scope of society is today. The article also analyzes the topic and explains the factors that lead to the effective implementation of the activities of heads of public authorities. This article analyzes the internal and external factors that affect the activities of public authorities and their leaders. In addition, the importance of socio-economic factors influencing the effectiveness of the heads of government agencies has been studied in detail. The further expansion of these factors shows how broad the scope of society is today. The article also analyzes the topic and explains the factors that lead to the effective implementation of the activities of heads of public authorities. As noted in the Concept of Administrative Reforms in the Republic of Uzbekistan (hereinafter referred to as the Concept), the mechanisms for assessing the performance of public authorities consist only of recording the current situation and the current collection of statistical data. In most cases it does not reflect the real state of affairs on the ground. One of the priorities of the Concept is the introduction of a fundamentally new system for evaluating the performance of all levels of executive power, including public authorities, based on the achievement of target indicators and the effectiveness of the implementation of strategic development programs. At the same time, the introduction of such a system poses new challenges for scientists to study the activities of public authorities.*

Keywords: state, authority, efficiency, factor, leader, activity, management.

Kirish

Huquqiy davlatni barpo etishda davlat hokimiyati organlari –samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, davlat organlari sifatida tegishli soha boshqaruvida aholi manfaatlarini aks ettiradi va demokratik tamoyillarning ifodachisi hisoblanadi.

Huquqshunos olim A. Maxmudovning tadqiqotlarida sohalarni kompleks rivojlantirishda, joylarda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini uzviy ro'yobga chiqarishda, qonun hujjatlarining so'zsiz ijro etilishini ta'minlashda, fuqarolarni davlat boshqaruviga jalb etishda va eng muhimi, mahalliy darajada demokratik prinsiplarning ro'yobga chiqarilishida davlat hokimiyati organlarining o'ziga xos o'rni va ahamiyati kattaligi haqida fikrlar ilgari surilgan [1]. Darhaqiqat, sohalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko'p jihatdan davlat organlari va ularning rahbarlari faolligiga bog'liq. Rahbarlar ishining ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlari va uni texnik-texnologik jihatdan to'laqonli ta'minlash esa mazkur faoliyat samaradorligini oshirish omillaridan biridir [2].

Material va metodlar

Maqolada tarixiylik, mantiqiy, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, prognozlash kabi usullar hamda tizimli, funksional yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina mamlakatlarda davlat hokimiyati organlari deputatlari faoliyatining ijtimoiy va moddiy-texnik kafolatlari me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

mustahkamlab qo'yilgan (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va boshqalar) [3].

“O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi” (keyingi o'rinlarda Konsepsiya) doirasida qayd etilganidek, davlat hokimiyat organlari faoliyatini baholash mexanizmlari faqat mavjud holatlarni qayd etish va statistik ma'lumotlarni joriy to'plashdan iborat bo'lib, bu ko'pchilik hollarda joylardagi ishlarining haqqoniy holatini aks ettirmaydi [4]. Mazkur Konsepsiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri – maqsadli indikatorlarga erishishga va strategik rivojlanish dasturlarini amalga oshirish samaradorligiga asoslangan barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat, shu jumladan, davlat hokimiyati organlari faoliyatini baholashning prinsipial yangi tizimini joriy etishdir. Ayni paytda, bunday tizimni joriy qilish olimlar oldiga davlat hokimiyati organlari faoliyatini tadqiq etish borasidagi yangi vazifalarni qo'yadi.

Davlat hokimiyati organlari va ularning rahbarlari faoliyati samaradorligini baholash asoslari yuzasidan ilmiy tadqiqotlarning kamligini, avvalambor, ushbu muammoning davlat va mahalliy boshqaruvdagi ko'rinishlari g'oyat murakkabligi bilan izohlash mumkin [5]. Bizningcha, davlat organi faoliyatini baholashdagi qiyinchiliklarning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- yuksak natijalarga erishish uchun moddiy rag'batlantirishning yetarlicha emasligi;
- faoliyat doirasidagi huquq va burchlar aniq shakllantirilgan reglamentlarga doir ishlanishi past darajada ekani;
- faoliyat natijalarini joriy baholashda oddiy va aniq usullarning mavjud emasligi.

Bugungi kunda mamlakatimiz Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5185-son Farmoni bilan tasdiqlangan Konsepsiya hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni hamda davlat hokimiyati organlari ishining samaradorligiga erishishni nazarda tutadi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, birinchi navbatda, partiyalar tomonidan ilgari surilgan kadrlar ish sifati darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirishda ularning bilim darajasi ham katta ahamiyatga ega [6].

Subyektiv omillar nafaqat qarorlar qabul qilish samaradorligiga, umuman, davlat organi faoliyati samaradorligiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu, eng avvalo, rahbarlarning davlat hokimiyati ijro organlari rahbari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarining o'ziga xos jihatlaridir. Ko'pincha ijro va vakillik organlari o'rtasida ham siyosiy, ham shaxsiy sabablar bilan bog'liq davomli nizolar yuzaga keladi. Shuningdek, qarorlar qabul qilishda shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatning yo'qligi ham bu borada katta to'siqlardan biri.

Bizningcha, barcha darajadagi rahbarlari faoliyatini reglamentga soluvchi qonun bunday holatni o'zgartirishi mumkin. Qolaversa, davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini aniqlash uchun ob'ekt va unga rahbar ta'sirining real va amaliy holatiga doir turli-tuman ma'lumotlarni, shuningdek, rahbar tomonidan olib borilayotgan ishning mazmuni, usullari, shakl va usullari, ta'sir ko'rsatish natijalari, samaradorlikni belgilovchi shart-sharoitlar va omillar haqidagi axborotlarni to'plash va tahlil qilish zarur.

Davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning mohiyatini anglashda, birinchi navbatda, “omil” degan tushunchaga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Omil (lotincha *factor* so'zi bo'lib, “qiluvchi”, “amalga oshiruvchi”, degan ma'noni bildiradi) – ma'lum bir jarayon sababchisi, uni harakatlantiruvchi, uning xarakteri yoki xususiyatlarini belgilovchi kuch [7]. O'zbek tilining izohli lug'atida esa: “Omil bu – sabab, ta'sirchan kuch degan ma'nolarni bildiradi” [8].

Harakatga undaydigan maqsad va rag'bat, faoliyatning kelajakdagi natijasi haqidagi tasavvur hamda maqsadga erishish vositasi kabi, majburiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan tashkilotlar faoliyatining sxemalari ular ishini baholash asosi bo'lmog'i kerak. Faoliyatning umumiy sxemasi va uning samaradorlik omilidan keyingi yuqoriroq bosqichga o'tishda natijani ishga solish kerak [9].

Davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligi nimaga bog'liq, degan savolga javob topadigan bo'lsak, bizningcha, mazkur organ faoliyati samaradorligi deganda, quyidagilar tushunilishi kerak:

– davlat organlari bajarayotgan ishlarning mazkur organ maqsadlari va o'rnatilgan talablarga mos kelishi;

- rejalashtirilgan natijaga erishish;
- vazifalarni eng oqilona va iqtisodiy tejamkor usullardan foydalangan holda bajarish;
- imkoniyatlar (qobiliyatlar, bilimlar, mahorat)dan imkon qadar to'liq foydalanish.

Fikrimizcha, *davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga ta'sir qiladigan ichki va tashqi omillarni keltirib o'tishimiz mumkin:*

Ichki omillarga:

– davlat organlariga rag'bat berish, natijaga yo'naltirilganlik, – ya'ni ularni harakatlantiruvchi kuch va sabablarning maqsadli yo'naltirilgani;

- davlat organlari rahbarining staji;
- rahbarlar tarkibining sifati va shakllanish usullari;
- davlat organlari rahbarlarining faoliyati moddiy ta'minoti darajasi;
- rahbarlik faoliyatining doimiy asosda tashkil etilmaganligi;
- davlat organlarining maqsad va vazifalari, o'z rolini anglab etishlari;
- davlat organlari rahbarlarining kasbiy tayyorgarlik darajasi;
- rahbarlarning tashabbuskorligi hamda shaxsiy va ishbilarmonlik sifatlari;
- qarorlar qabul qilishda jamoaviylik usulining qo'llanilishi;
- tanlangan strategiyalarning belgilangan maqsadlarga to'g'ri kelishi;
- faoliyatni tashkiliy ta'minlash, bunda rahbar usuli, to'plangan boshqaruv amaliyoti;
- huquqiy mexanizmning sustligi; maqsadni belgilash, ya'ni rejalashtirilgan maqsadlarning muhim talablari, davlat organlari imkoniyatlari hamda fuqarolar manfaatlariga mos kelishi.

Tashqi omillarga:

– ijroning o'ta markazlashtirilgani;

– ijro hokimiyatining turli tashkilotlari, davlat hokimiyati organlari, jamoat tashkilotlari, OAV bilan hamkorlikda ishlashni muvofiqlashtirish;

– davlat organlari rahbarlari va aholi o'rtasidagi hamfikrlik.

– ustuvor qadriyatlar, davlatning strategik maqsadlari, ijtimoiy tizimning qonuniy konsepsiyalari va rivojlantirish andozalari, siyosiy kurs;

– davlat boshqaruvidagi qadriyatlar;

– davlat mexanizmining bir me'yorda ishlashi;

– davlat organlarining joylardagi mahalliy davlat ijroiya organlari bilan o'zaro hamkorligi.

Yuqorida sanab o'tilganlar orasida eng muhim omillardan biri – davlat organlari va ularning rahbarlarining faoliyati samaradorligining kafolati hisoblanadi. Shu bois, rag'batlantirish tizimi va u bilan birga, davlat organlari rahbarlarining manfaatlari va ehtiyojlarini mazkur organning strategik maqsad va vazifalari bilan muvofiqlashtirish imkonini beruvchi xizmat faoliyatiga haq to'lash tartibi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, attestatsiya – davlat xizmatchisining kasbiy tayyorgarlik darajasi va o'zi egallagan davlat xizmati lavozimiga mosligini aniqlash tizimi mavjud bo'lishiga qaramay, ushbu baholash natijalari xizmatchi faoliyatining samaradorligini, muassasa yoki tarkibiy bo'linma maqsadlariga yetishishida uning qo'shadigan hissasini aniqlash imkonini bermaydi [11]. Shunday ekan, davlat organlarida faoliyatning sifati oshirish, belgilangan maqsadlarga erishish jarayonlarini monitoring qilish, deputatlarni to'g'ri rag'batlantirish maqsadida rahbarlar faoliyatining samaradorligi va ta'sirchanligini izchil baholash zarur.

Albatta, maqsad sifati singari omilni ham hisobga olish davlat hokimiyati organlarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur hisoblanadi. Zero, xalq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrda parlamentga qilgan ilk Murojaatnomasida bu borada quyidagilarni e'tirof etgan edi: "Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda" [11].

Xulosalar

Bugungi kunda biz davlat organlari rahbarlarining aynan o'z oldiga maqsad qo'yish borasida beparvo munosabatda bo'layotganini ko'rmoqdamiz. Qotib qolgan qoidaga ko'ra, davlat hokimiyati organlari o'z oldiga qo'yadigan maqsadlar ko'proq deklarativ xususiyatga ega bo'ladi. Go'yoki avvaldan davlat hokimiyati organlarining belgilangan vazifani amalga oshira olmasligi yoki uni bajarishni istamasligi ularning asosini tashkil etadi. Biz davlat organlariga rag'bat berish, jumladan, ularning tashkiliy madaniyatini yuksaltirish zarurligi haqida yuqorida aytib o'tdik. Tashkiliy hayotga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyatning esa ikki omili mavjud. Birinchisi – madaniyat va axloq o'zaro bir-birini to'ldiradi. Ikkinchisi – madaniyat odamlarning amallariga emas, ularning ushbu amallarni qanday bajarishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu masala davlat organlari rahbarlari uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki davlat hokimiyati organlari muayyan rag'batlantiruvchi tuzilmalar bo'lganida o'z ishlarini yanada samarali amalga oshirgan bo'lardilar.

Davlat organlari rahbarlariga texnik vositalar, aloqa vositalari va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish uchun shart-sharoit yaratiladi. Biz yuqorida keltirgan omillar davlat organlari rahbarlarining faoliyatining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar doirasi kengayib bormoqda. Ijtimoiy munosabatlar kengayib borishi va turli sohalardagi rovojlantirishga bo'lgan intilishi rahbar faoliyatining mahsuldor amalga oshirishni talab qilmoqda. Shu sababdan ham bizning fikrimizcha davlat organlari faoliyatining samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni muayyan qolibga solib bo'lmaydi ammo ularni muayyan tizimga solish mumkin. Bu tizim, albatta, kengayib boradi.

REFERENCES

1. Махмудов А. Ўзбекистон Республикасида Маҳаллий вакиллик органларининг назорат фаолиятини такомиллаштириш. [Improving the oversight of local representative bodies in the Republic of Uzbekistan] Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация. Т., 2019, р. 14.
2. Analiticheskiy doklad. Sovershenstvovaniye deyatel'nosti i povysheniye roli mestnykh Kengashey narodnykh deputatov [Improving the activities and increasing the role of local Kengashes of people's deputies]. Т.: 2015, р. 15.
3. Ovchinnikov I.I. Institut deputatskoy neprikosnovennosti v praktike mestnogo samoupravleniya: genesis i problemy pravovogo regulirovaniya [The Institute of Parliamentary Immunity in the Practice of Local Self-Government: Genesis and Problems of Legal Regulation]. Eurasian Law Journal, 2012, no. 8 (51).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 сентябрдаги қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислохотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ –5185 – сонли Фармони. [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 8, 2017 PF-5185 “On approval of the Concept of Administrative Reforms in the Republic of Uzbekistan”.]
5. Ўзбекистон Республикасининг “Сиёсий партиялар тўғрисида” ги Қонуни / Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, [Law of the Republic of Uzbekistan “On Political Parties” / Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan,] 1997 й., 2-сон, 36-модда.
6. Ushakov D.N. Tolkovyy slovar' sovremennogo russkogo yazyka [Explanatory Dictionary of the Modern Russian Language]. М., Adelant, 2014, р. 800.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. [Annotated dictionary of the Uzbek language]– Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006. – Б.122-123.
8. Magomedov M.SH. Organizatsionno-metodicheskiye osnovy sovershenstvovaniya protsessa prinyatiya upravlencheskikh resheniy na predpriyatiyakh APK: na primere Respubliki Dagestan [Organizational and methodological foundations for improving the process of making managerial

decisions at agribusiness enterprises: on the example of the Republic of Dagestan]. Thesis of the candidate of economic sciences. 08.00.05. Makhachkala, 2009, 173 p.

9. Sheripov N.T. Otsenka i attestatsiya gosudarstvennogo grazhdanskogo sluzhashchego i munitsipal'nogo sluzhashchego Kyrgyzskoy Respubliki: sravnitel'no-pravovoy analiz [Evaluation and certification of a state civil servant and a municipal employee of the Kyrgyz Republic: a comparative legal analysis]. Bulletin of the Voronezh State University, 2016, no. 4 (27), pp. 198-207.

10. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир [The consent of our people is the highest value given to our activities]. Т., Uzbekiston, 2018. p. 71.

11. Klimenko S.S. Vliyaniye kul'tury na organizatsionnyuyu effektivnost'. Menedzhment sotsial'nykh i ekonomicheskikh sistem [Influence of culture on organizational efficiency. Management of social and economic systems]. 2017, no. 4, pp. 70-76.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.